

**XITOIY MATBUOTINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI****O'ktamova Nazokat***O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Oliy jurnalistika kurslari 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy matbuotining Internet davrida tutgan yo'li, rivojlanish tarixi, o'ziga xos jihatlari partiya gazetalarini misolida ajratilib o'rganiladi. Matbuotning zamonaviy taraqqiyot omillarini yoritish maqsadida birlamchi manbalardan foydalanilib, Xitoy matbuotining zamonaviy davrda Weibo sayti va Wechat mobil ilovasidan foydalanish orqali gazetalarining erishgan natijalari keltirilgan va maqola yakunida tiklangan ma'lumotlardan tizimlashtirilgan, yaxlit xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Xitoy matbuoti, Weibo, Wechat, Jenmin jibao, Tencent, NetEase, Baidu, Toutiao.

Abstract: This article separately examines the path of the Chinese press in the Internet era, the history of development and its specific aspects using the example of party newspapers. In order to highlight the factors of modern development of the press, primary sources are used, the results achieved by newspapers using the Weibo website and the Wechat mobile application of the Chinese press in the modern era are presented, and at the end of the article, based on the recovered information, a systematic and comprehensive conclusion is drawn.

Keywords: Chinese press, Weibo, WeChat, People's Daily, Tencent, NetEase, Baidu, TouTiao.

Tashkil etilganidan beri Weibo va WeChat yangiliklarni tarqatish va mamlakat gazeta sanoatining ishlab chiqarish tuzilmasi va ishlab chiqarish usullaridagi o'zgarishlarga chuqur ta'sir o'tkaza boshladi. So'nggi yillarda markaziy ommaviy axborot vositalari va partiya gazetalarini an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan integratsiyalashgan muloqotda doimo yetakchi bo'lib kelmoqda. Quyida "Jenmin jibao online" gazetasining yillar davomida mamlakatdagi media konvergentsiya aloqasi indeksi va "ikki mikro va bitta terminal" bo'yicha tadqiqot natijalariga asoslanib, Xitoyning gazeta sanoati 2009-2017 yillar ichida "ikki mikro va bitta terminal" kabi yangi media sohalarida bosib o'tgan g'ayrioddiy sayohatiga nazar tashlasak.

2009-yil 7-sentyabr Sina Weibo birinchi rasmiy Weibo gazetasini - @Hangzhou jibaoni kutib oldi. Xuddi shu oyda ikkita Shahar gazetasi, Nanfang doushibao va Beijing sinven ham Weiboga kirdi. Gazeta sanoatida Weiboning ochilishi asta-sekin tendentsiyaga aylandi va ko'rsatkichlar o'sishda davom etmoqda.

2012-yil 21-iyul kuni Pekinda Jenmin jibao ham Weiboda o'z akkauntini ochdi. Weibodagi rivojlanayotgan axborot vositalari an'anaviy ommaviy axborot vositalari tomonidan tan olingan, bu shuningdek asosiy ommaviy axborot vositalari axborot asrining muammolariga to'liq media yondashuvida javob bera olishini ham anglatadi.



Bu o'zgarish, shubhasiz, umumiy va strategik ahamiyatga ega. "Jenmin jibao" ning Weibodagi akkaunti markaziy darajadagi ommaviy axborot vositalari va mahalliy partiya gazetalarini Weiboda o'z akkauntlarini ochishga ilhomlantirdi.

"Jenmin jibao" ning dastlabki ikki oyda kuniga o'rtacha obunachilar soni 24000 ga oshdi, bir kunda 10463 ta fikr bildirildi va postlar o'rtacha 31 056 marta ulashildi. 2012-yil 8-noyabr Xitoy Kommunistik partiyasining 18-Umummilliy qurultoyining ochilishi munosabati bilan Sina Weiboda "Jenmin jibao" obunachilari soni 2,8 milliondan oshdi. "Jenmin jibao"ning o'sha paytdagi tiraji ham 2,8 milliontani tashkil etgan edi. Weibo 4 oydan kamroq vaqt ichida 2,8 million auditoriyani to'pladi, bu Weiboda yana bir "Jenmin jibao"ni yuritishga teng edi. 2013-yil mart oyiga kelib, "Jenmin jibao" ning Weibodagi "muxlislari" soni 10,58 millionga yetdi va Xitoyning o'n million kuzatuvchiga ega birinchi Weibo media akkaunti bo'ldi.⁶⁰

2011-yilning may oyidayoq "Jenmin jibao" Xitoyda birinchi bo'lib "Jenmin jibao muharrirlar va jurnalistlari uchun Internetdan foydalanishning kodeksi"ni ishga tushirdi. To'liq matn 2850 dan ortiq so'zdan iborat bo'lib, "Umumiy tamoyillar", "Ushbu gazetaning Internet ma'lumotlaridan foydalanish bo'yicha ehtiyot choralari" va "Weibo, bloglar va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha muharrirlar va muxbirlar uchun eslatmalar" kabi uch asosiy qismga bo'lingan. "Jenmin jibao" va 20 dan ortiq unga qarashli kichik gazetalarda to'liq amalga oshirildi va "Jenmin jibao"ning barcha ommaviy axborot vositalarini o'zgartirdi va rivojlantirdi. Bu bugungi kunda ham mamlakat ommaviy axborot vositalari uchun amaliy ahamiyatga ega muhim ma'lumot.⁶¹

2011-yil boshidan beri esa WeChat omma e'tiboriga tushdi. Xitoyning gazeta sanoati uchun eng muhim voqeasi shuki, WeChat 2012-yilda o'zining ommaviy platformasini ochdi, bu esa ma'lumotlarni aniq va maxfiy tarzda yetkazib berish imkonini berdi. 2016-yilda Tencent Holding tomonidan e'lon qilingan "WeChat Data hisobotlari"ning 2016-yil nashriga ko'ra, mass media ommaviy akkauntlarining ulushi 1/4 dan oshadi; xizmat ko'rsatish sohasidagi davlat hisoblarining ulushi taxminan 1/5 ni tashkil qiladi. 2017-yilning o'rtalariga kelib, WeChatning oylik faol foydalanuvchilari soni 800 milliondan oshdi, WeChatning umumiy akkauntlari esa 20 milliondan oshib, dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarini qamrab oldi. WeChat ijtimoiy akkauntidagi "100 000+" mashhur maqolalari mobil Internetda "qaynoq nuqta"lardan biriga aylandi.

"Ikki mikro va bitta terminal" ommaviy axborot vositalarini kompleks rivojlantirish standartiga aylandi. Asr boshidagi o'n yillik tayyorgarlikdan so'ng butun mamlakat bo'ylab gazetalar o'z mijozlarini joylashtirish va qurish bo'yicha sa'y-harakatlarini kuchaytirdilar. Yangiliklar mijozini qurish to'lqini "oltin o'n yillik" ni boshlab berdi. 2009-yil oxiridan an'anaviy gazetalar va davriy nashrlar mobil gazetalar va mobil yangiliklar mijoz dasturlari bilan shug'ullana boshladilar. 2010-yildan so'ng

⁶⁰ 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. - 第374-375 页

⁶¹ 刘鹏飞: 《媒体微博发展中的问题与规范化管理》, 《新闻与写作》2013年第8期。



tijorat portallari ham shunga ergashdi va yangiliklar mijozi mahsulotlarini ishga tushirdi. Sohu, Tencent, NetEase, Baidu, Toutiao va boshqa platformalar 2013-yil oxiriga kelib juda ko'p foydalanuvchilarni to'pladi.

"Jenmin jibao Online" tomonidan e'lon qilingan "2016 Xitoy ommaviy axborot vositalarining konvergentsiya aloqasi indeksi hisoboti" ma'lumotlariga ko'ra, hisobotda jami 382 ta turli turdagi nufuzli gazetalar tanlab olindi. Ro'yxatga ko'ra, integratsiyalashgan aloqa bo'yicha 100 ta eng yaxshi gazetalar orasida "Jenmin jibao" va "Huanchiu jibao" va "Sankao siaosi" eng yaxshi uchlikdan joy oldi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yil 15-oktabrda Xitoy Kommunistik partiyasining 19-Milliy Kongressi muvaffaqiyatli chaqirilishi arafasida "Jenmin jibao"ning ingliz tilidagi ilovasi rasman ishga tushirilib, xalqaro muloqot uchun yangi jabha ochildi.⁶²

"Jenmin jibao Online" gazetasining "Ijtimoiy fikrlarni monitoring qilish xonasi" tahliliga ko'ra, gazeta turlari bo'yicha 2016-yilda 100 ta eng yaxshi integratsiyalashgan kommunikatsiyalar ro'yxatida eng yaxshi o'nta partiya gazetolari jami 7 o'rinni egallagan. Top100 ro'yxatida eng ko'p poytaxt gazetolari bor, jami 53 ta kompaniya ro'yxatga kiritilgan, biroq bu 2015-yildagi eng yaxshi 100 ta mobil aloqa ro'yxatidagi 61 o'rin bilan solishtirganda bir oz pasayish kuzatilgan. Ro'yxatda jami 25 ta partiya gazetasi bor, ulardan 5 tasi Pekindan, qolgan 20 tasi esa mamlakatning turli provinsiya va shaharlarida tarqalgan.

Umuman olganda, keng qamrovli Weibo va WeChat platformalari katta almashish va yo'naltirish bilan boy va yetrali ma'lumotlarni taqdim etuvchi gazetalarini bozorga chiqarishning asosiy subyektidir

"Jenmin jibao Online" jamoatchilik fikrini monitoring qilish xonasi tahliliga ko'ra, eng yaxshi 100 ta ro'yxatdagi barcha gazeta va ommaviy axborot vositalari Weibo yoki WeChat rasmiy akkauntlariga ega. "Ikki mikro va bitta terminal" orasida WeChat eng yuqori foydalanish darajasiga ega, undan keyingi o'rinda esa Weibo. Ommaviy axborot vositalarining barcha turlari orasida gazeta OAVlari integratsiyalashgan aloqaning eng yuqori darajasiga ega. 100 ta eng yaxshi gazetalar orasida 93%i o'z ilovalarini yaratgan. Mamlakat bo'ylab gazetalarining WeChatdagi natijasida sezilarli darajada rivojlanmoqda, Weibodagi natijalarda esa muxlislar va postlar sonida katta farqlar mavjud.

So'nggi yillarda butun mamlakat bo'ylab partiya gazetolari yaxlit rivojlanishni jadallashtirish sur'atini saqlab qoldi va ayni paytda zamonaviy yangi media guruhlarini yaratishda asosiy kuchdir. 2017-yil 1-iyul kuni "Milliy partiya gazetasi veb-saytining ikkinchi sammiti forumida "Jenmin jibao" birinchi marta "2017-yilgi Milliy partiya gazetasining integratsiyalashgan aloqa indeksi hisoboti" ni e'lon qildi. Hisobot gazetalar, veb-saytlar, Weibo, WeChat va shaxsiy ilovalari orqali mamlakat bo'ylab 367 partiya gazetalarining integratsiyalashgan aloqasini har tomonlama o'rganadi va partiya gazetalarining integratsiyalashgan aloqasining umumiy holati va asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Mamlakat bo'ylab partiya gazetalarining

⁶² <http://media.people.com.cn/n1/2016/1220/c192370-28964256.html>



integratsiyalashgan muloqotining umumiy holatini kuzatish orqali biz integratsiya tendensiyalari va qonuniyatlarini chuqurroq tushunishimiz mumkin.⁶³

367 ta partiya gazetalarida orasida 270 ta partiya gazetasi Sina Weibo'da rasmiy Weibo akkauntlarini ochgan, faollashuv darajasi esa 73,6%. "Jenmin jibao", "Guanjou jibao", "Nanfang jibao", "Guangming jibao" va "Sinxua jibao" esa Weiboda kuchli beshlikka kiradi. "Jenmin jibao chet el nashri", "Sichuan jibao", "Sujou jibao", "Shenjen iqtisodiy gazetasi" va "Beijing jibao" esa oltinchi o'ringacha joylarni egallashgan.

Muxlislar sonidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, 2017-yil holatiga ko'ra 270 ta partiya gazetalaridan iborat rasmiy Weibo'dagi muxlislar soni o'rtacha 855 000ni tashkil etadi, o'rtacha ko'rsatkich esa 92 000 ni tashkil qiladi. "Jenmin jibao", "Guanjou jibao", "Nanfang jibao" va "Guangming jibao" kabi 4 ta yirik gazetalar 10 milliondan ortiq muxlisga ega bo'lib, 1,5% ni tashkil qiladi; 5 milliondan 10 milliongacha muxlisga ega bo'lgan 9 kompaniya esa 3,3% ni tashkil qiladi. 1 milliondan ortiq hajmga ega bo'lganlar 14,1% ni tashkil etadi va partiya gazetalarining yarmidan ko'pi (51,5%) Weibodagi obunachilarining soni 100 000 dan kam. Weiboda postlarni o'qish hajmi nuqtai nazaridan, 270 ta partiya gazetalarining Weibo'dagi rasmiy postlarida bitta post o'qishning o'rtacha soni 23 000 tani, o'rtacha ko'rsatkich esa 2 561 tani tashkil etdi. "Jenmin jibao"ning har bir rasmiy Weibo postining o'rtacha o'qish hajmi 4 milliondan oshadi, to'rtta partiya gazetasining Weibodagi bitta rasmiy postining o'rtacha o'qish hajmi 100 000 dan 500 000 gacha va Weibo'dagi 30 ta rasmiy postning o'rtacha o'qish hajmi 10 000 dan 100 000 gacha, 50% (135 ta) Partiya gazetasining rasmiy Weibodagi bitta postini ko'rishlar soni o'rtacha 1000 dan 5000 gacha. Top 100 talikka kirmagan akkauntlar tomonidan chop etiladigan o'rtacha kunlik maqolalar soni taxminan 4,7 ni tashkil etadi. Har bir maqola 750 marttadan 2000 marttagacha o'qilgan.

Weibodagi o'zaro ta'sirlardan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, "Jenmin jibao" rasmiy Weiboda yetakchilik qilgan. Birgina Weibo postiga o'rtacha fikr-mulohazalar, ulashishlar va yoqtirishlar soni mos ravishda 1597, 3922 va 6600 tani tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Weibo va Wechat orqali mamlakat gazeta sanoati insoniyat tarixidagi eng chuqur axborot texnologiyalari o'zgarishlarini boshdan kechirayotganiga va Internetning yangi rivojlanish kontseptsiyalarini matbuot gazetalaridan qabul qilinishi, matbuotning zamonaviy tendensiyalarga bo'lgan ochiqligi orqali gazeta sanoatidagi media kelajagini yanada yaxshilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jenmin Jibao va ko'plab gazetalar Weibo va Wechat platformalari yordamida foydalanuvchilari soni, postlarni o'qilish darajasi, kunlik chop etilayotgan maqolalar ko'rsatayotgichlarini salqab qolishdi va bu natijalarni yanada yaxshilashda davom etmoqdalar.

⁶³ http://news.cnr.cn/native/gd/20170704/t20170704_523833337.shtml



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 刘鹏飞:《媒体微博发展中的问题与规范化管理》,《新闻与写作》2013年第8期。
2. 方汉奇. 中国新闻传播史. - 北: 中国人民大学出版社, 2012. -410页.
3. 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 464页.
4. 方汉奇. 中国新闻事业通史. - 北: 中国人民大学出版社, 1999. - 3568 页.
5. 徐松. 宋会要辑稿. - 北京: 中国人民大学出版社, 2002. - 366 页.
6. 顾炎武. 亭林文集, 第3卷第15页, 见戈公振《中国报学史》. - 香港: 中国新闻出版社, 1985. - 320 页.
7. 周询. 蜀海丛谈, 卷二“奏折”, 见程丽红《清代报人研究》. - 北京: 社会科学文献出版社, 2008. - 266页.
8. 梁启超. 戊戌政变记. - 上海: 中华书局, 1954. - 470页.
9. Cheng Huifen, Dai Lili. Jenmin jibao Onlayn Tadqiqot Instituti “2016 Xitoy Media integratsiyalashgan aloqa indeksi hisoboti”ni taqdim etdi. -URL: <http://media.people.com.cn/n1/2016/1220/c192370-28964256.html> (murojaat sanasi: 16.03.2024)
10. Ma Yuan. 2017 Milliy partiya gazetasining integratsiyalashgan aloqa indeksi hisoboti chop etildi. -URL: http://news.cnr.cn/native/gd/20170704/t20170704_523833337.shtml (murojaat sanasi: 22.03.2024)